

"Bahorning besh kuni" loyihasining 3 -kuni

3-kuni tadbirlar, tanlovlар yakunlandi. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti xotin-qizlari uchun tashkil etilgan "Bahorning besh kuni" festivali 3-kuni fakultetlararo Qizlar davrsasi tadbirlari bilan boshlandi. Qizlar davrsasi tadbiri professor-o'qituvchilar, fakultetlar xotin qizlar bilan ishlash raislari, hamda talaba-qizlar ishtirokida kunning birinchi yarmida bo'lib o'tdi. Tadbir Madaniyat va ma'rifat telekanali orqali tasvirga olindi va efirga uzatildi. Bir vaqtning o'zida institut kirish eshigi oldida loyihaning maxsus sur'atga tushish uchun banner o'rnatildi hamda fotorasmlar tanlovi telegramm ijtimoiy tarmog'i orqali e'lon qilindi.



Kunning ikkinchi yarmida V bino 2 qavatida ma'ruza zallariga kirish joyida

1. Tikuvchilik
2. To'quvchilik
3. Bisser yasash
4. Taom tayyorlash

5. Bahoriy salatlar tayyorlash shartlari bo'yicha fakultetlararo talaba-qizlar o'rtasida jamoaviy tanlov o'tkazildi. Tanlov do'stona raqobat va yaxshi kayfiyat ostida bo'lib o'tdi.



Tanlovnı hakamlar baholab, natijalar quyidagicha bo'ldi.

1. Tikuvchilik va taom tayyorlash nominatsiyasida
QXM va GM fakultetlari.
2. Biser yasash va to'quvchilik nominatsiyasida.
GIM, YRB, QSXET fakultetlari.
3. Bahoriy salatlar tayyorlash nominatsiyasida. GTQ va SXTE va B fakultetlari g'olib deb topildi.



Ishtirok etgan talabalarga minnatdorchilik bildirildi. Haftalik yakunida taqdirlash marosimida taqdirlanish bo'yicha faol ishtirok etgan qizlar institut Xotin-qizlar jamoasi raisi tomonidan belgilab olindi. Kunnig yakunida Talabalar turar joyida istiqomad qiluvchi hamda festivalda faol ishtirok etayotgan talabalar uchun Poytaxtimizda joylashgan "Muqimiy" nomidagi Davlat teatriga 300 ta biletlar tarqatildi hamda talabalar teatrga bir jamoa bo'lib, o'qituvchilar boshchiligidagi ma'naviy hordiq chiqarish uchun tashrif buyurishdi. Shuningdek, bugundan bayram kayfiyati yanada jonlandi desak, adashmagan bo'lamiz ertaga 4-kun tadbirlar, tanlovlار bo'lib o'tadi. Albatta, faol ishtirok eting. Bizni kuzatib boring, qiziqarli jarayonlar hali oldinda, eng muhimi taqdirlash marosimiga ham oz fursat qoldi.

TIQXMMI matbuot xizmati